



## MUSTAQIL TARZDA VEB SAYT YARATISH UCHUN KERAKLI OMILLAR VA TOP-3 PLATFORMALAR

**Usmanova Lazizaxon Kasimovna**

*43-Davlat Ixtisoslashtirilgan Umumiy O'rta Ta'lim maktabi*

**Xamroxo`jayeva Kibriyo Shavkatjon qizi**

*43-Davlat Ixtisoslashtirilgan Umumiy O'rta Ta'lim maktabi*

**Annotatsiya:** *Maqolamizda keltirib o'tilgan veb sayt yaratishdagi asosiy va muhim tushunchalar bilan tanishib borar ekansiz, o'zingiz mustaqil veb sayt uchun kod yozishni ham o'rgana boshlaysiz. Ushbu maqolada veb sayt uchun nimalarni bilishingiz kerakligini anglab olasiz va boshlang'ich veb yaratuvchilik qobilyatingizni oshirasiz va ba'zi veb sayt yaratishda foydali bo'lgan platformalar haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.*


**Kalit so'zlar:** *veb sayt, html, css, javascript, php, java, access, sql*

**Annotation:** *As you get acquainted with the basic and important concepts of creating a website mentioned in our article, you will also begin to learn how to write code for an independent website yourself. In this article, you will understand what you need to know for a website and improve your beginner web development skills and learn about some useful website building platforms.*

**Keywords:** *website, html, css, javascript, php, java, access, sql*

**Аннотация:** *Познакомившись с основными и важными понятиями создания сайта, упомянутыми в нашей статье, вы также начнете учиться писать код для самостоятельного сайта самостоятельно. В этой статье вы поймете, что вам нужно знать о веб-сайте, улучшите свои навыки веб-разработки для начинающих и узнаете о некоторых полезных платформах для создания веб-сайтов.*


**Ключевые слова:** *сайт, html, css, javascript, php, java, access, sql*

**Kirish.** *O'zbek dasturlash olamida esa yangiliklar kun sayin ko'payib bormoqda. Misol uchun,  mohirdev - Anvar Nazrullayevning dasturlash olamida kata o'rni mavjud, uning yaratgan barcha ishlari boshqa dasturchilar tomonidan hozirgacha yuqori ko'rsatkichda foydalanib kelinmoqda.*





Uning yaratgan sahifasi <https://mohirdev.uz/> o'z foydalanuvchilarini keskin domiga tortgan. Uning sahifasidagi foydali darslar, elektron qo'llanmalar juda sifatli ishlangan bo'lib, o'rganuvchiga keragidan ortiq ma'lumot bazasini taqdim eta oladi.



Ba'zida, ingliz tilini oshish uchun yosh dasturchilar ingliz platformalaridan foydalanadilar, albatta bu ham foydali hisoblanadi. Arab davlati bilan yaratilgan <https://community.uzbekcoders.uz/> - bir million o'zbek dasturchilari platfromasi ham hozirda keng auditoryani qamrab oldi.

Sayt dizayni milliylikga asoslangan bo'lib, foydalanuvchilar uchun qulay muhit yaratilgan, unda til tanlash ham o'z ixtiyoringizda bo'ladi. Sahifa o'zbek tilini ham ingliz tilini ham qabul qiladi va shu tillarda faoliyat yuritadi. «One Million Uzbek Coders» loyihasining amalga oshirilishi aholining keng qatlamlarini AKT sohasida yangi kasblarni o'zlashtirish, yoshlarni, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarni ishga joylashtirish imkonini beradi», — ta'kidladi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov. Tantalni marosimda ishtirok etgan mehmonlar orasida Birlashgan Arab Amirliklari delegatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi hukumati, mamlakatimiz vazirlik va idoralari rahbarlari ishtirok etdi.



### ASOSIY QISM

. Avvalo, siz o'zingiz yaratayotgan veb saytingizni aniqlashtirib oling, uning uchun kerakli bo'lgan dasturlash tillarini aniqlashingiz lozim, o'sha dastrulash tilidagi bilimingizni saralab oling va veb sayt uchun tadqiq qilishingiz qanchalik yuqori ekanligini tekshirib ko'ring. Barcha veb yaratuvchilar o'zlarining veb saytlarini insonlarga va foydalanuvchilarga qanchalik foydali ekanligini boshidayoq o'ylaydilar, dasturlash sohasida boshlang'ich bilimga ega bo'lgan dasturchilarning mustaqil sayt yaratishlari biroz mushkul, ammo insonning qo'lidan ko'p narsa keladi. Boshlang'ich ko'nikmaga ega bo'lsangiz ham videodarslar, online platforma va elektron darsliklardan foydalangan xolda o'zingizning saytingizni yaratishingiz mumkin.



Veb sahifangizni yaratayotganingizda uning jarayon yo'nalishini aniqlab oling, u dinamik bo'lishi sizning sahifangiz rivojiga hissa qo'shadi, yangiliklarga, online shoppingga, online o'qitish tizimiga, yoki shaxsning o'z portfoliyosiga mo'ljanlangan sahifalar doimiy dinamik xolatda bo'ladi. Agarda siz boshlang'ich o'rganuvchi bo'lsangiz HTML va CSS dan foydalangan xolda o'zingizni kichik bir saytingizni yaratishingiz mumkin. Siz o'z amaliyotingizni oshirish jarayonida sizga ko'plab g'oyalar kelishi mumkin, bir g'oyadan ikkinchi g'oyaning yaratilishiga o'tib ketishingiz mumkin va bu dasturchiga xos kasalliklardan biri, shu paytgacha ko'p dasturchilar mana shu salbiy kamchilikdan aziyat chekadilar. Ammo, siz bunday bo'lmaslikga harakat qiling. O'zingiz uchun muhim dasturlash tillarini tanlab oling.

Eslatib o'tamiz, HTML dasturlash tili emas. Ko'p beginner dasturchilarda mana shu muammo bo'ladi, HTML ni dasturlash tillari safiga qo'shib qo'yadilar.

Veb dasturlashga endigina qadam qo'yganlar uchun birinchi o'rinda HTMLni o'rganish tavsiya etiladi, u sodda va o'rganilishi oson hisoblanadi.



Keyingi bosqichlarda esa CSS, JS, PHP, Java yoki SQL tillarini o'rganishlari o'z iqtidorlariga bog'liq.

Ularni o'rganishda mustaqil o'rganuvchilar bepul platformalardan, bepul videodarslardan foydalanishlari mumkin. Ammo, bu ko'pincha o'rganuvchini o'ta mustaqilikga layoqatsiz qilib qo'yadi. Kodlarni yozishda erinishlar yuzaga keladi. O'z maqsadiga yetuvchi ko'plab dasturchilar mavjud bo'lib, ular to'xtovsiz mehnat qiladilar, va bilim uchun ko'p sarmoya ajratganlar. Bepul videodarslar uchun <https://www.youtube.com/> eng foydalisi hisoblanadi, ushbu sahifadagi videodarslarda ko'p dasturchilarning millati hind vakillari bo'lib, ularning ingliz tilidagi shevalariga tushunish biroz qiyin kechadi, ammo ko'plab videodars egalari hindlar sanaladi va ulardan ko'p bilim o'rganishingiz mumkin. Juda bo'lmaganda, amerikanча shevalarda ham o'z videodarslarini youtube sahifasiga joylovchi dasturchilar ham mavjud, ammo, ulardan yaxshisini tanlashingiz qiyin kechadi. Tanlovingizga suyangan xolda o'z bilimlaringizni o'rgana boshlang. O'zingizga qulaylik yaratish o'z qo'lingizda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan dasturlash tillari yoki boshqa tillarni o'rganish katta iroda talab qiladi. Yana bir online platforma mavjud bo'lib, u amerikaga tegishli hisoblanadi. Uning foydalanuvchilar ko'p qamrovli. Unda ham o'rganib, ham amaliyot




oshirishingiz mumkin. Laboratoriyalarni va bir darsni muvaffaqiyatli bitirgan talabaga online sertifikat taqdim etiladi. Platformada foydalanuvchilar o'z portfoliyosini taqdim etadilar, ana shu ma'lumotlarni hisobga olgan xolatda platforma foydalanuvchilarining aktivlik reytingini namoyon qiladi. Ushbu platformani bepul va pullik turi mavjud. Istalgan mavzudagi, istalgan dasturlash tilingizdagi kodlarni topish imkoniyatingiz mavjud hisoblanib, o'rganish imkoniyatingiz oshadi.

Ushbu platformani linki - <https://www.sololearn.com/> , uning shiori - "O'ynab o'rgan, O'rganib o'yna" kabidir. Platformaning asosiy maqsadi ham o'z foydalanuvchilarini o'rganishda zeriktirmaslik hisoblanadi. Uning android varianti ham mavjud bo'lib, o'zingizga qulay shaklda platforma zo'nasida bo'la olasiz.



Platformada sizning akkountingiz quyidagi ko'rinishda aks etadi. Unda siz o'rganib bo'lgan dasturlariningiz, platformadagi reytingiz, qo'lga kiritgan yutuqlaringiz va yozgan kodlaringiz aks etadi.



Platformada dasturlash tillarini o'rganish jarayonida siz o'z darajangizni oshirib borasiz. Kod yozishda mayda xatoliklarga ham ahamiyat berishni o'rganasiz. U yerga siz o'z quizlaringizni taqdim etishingiz ham mumkin, quizlaringizni barchasi sizning



muallifligingizda platformaga joylanadi. Platforma o'z rivojini o'z foydalanuvchilari orqali oshiradi.

Uni o'z qurilmangizga yuklab oling va dasturlash olamiga o'z nomingizni kiriting.

**Xulosa.** Ushbu maqoladagi ma'lumotlar sizga foyda keltiradi degan umiddamiz. Dasturlash - zamon talabi ekanligini hisobga olgan holda, vaqtingizni zoye ketkazmang. Biz yashayotgan bu olamda 100 yil ilgari yaratilishi imkonsiz bo'lgan barcha kashfiyotlar dasturlash orqali yaratilib kelinmoqda. O'z yurtigingizni rivojiga o'z hissangizni qo'shing. Yuqoridagi 3 platforma o'z foydalanuvchilarini shu paytgacha manzur etib keldi, siz ham uning foydalanuvchilarining biriga aylaning. Dasturchilik kasbi oddiy va oson kasblardan emas, huddi oddiy bosha kasblardek har kuni bir xil kun tartibiga ega bo'lmaysiz, u juda qiziqarli kasb, siz o'z g'oyalaringizni amaliyotga tadbiq eta olasiz, doimiy miyya faoliyatingizni ish jarayonida bo'ladi. Platformalardan to'g'ri foydalanish o'zingizga bog'liq.

O'zingiz yoqtirgan platformani tanlang va unga o'yin yarating. Mana shu platformani rivojlantiruvchilarning forumini toping va suhbatlariga aralashing. So'raydigan ko'plab savollaringiz bo'ladi albatta. Ammo, bir kun kelib siz ham boshqalarning so'ragan savollariga javob bera oladigan darajaga yetasiz. O'shanda, agar o'yin yaratuvchilar ustida ishlayotgan platformada aktiv bo'lsangiz hamda forumdagi javoblaringiz bilan ularning etiborini torta boshlasangiz hayron qolmang.

Dasturlashni o'rganishda hech qachon copy/paste qoidasiga suyanmang, kod yozsilda erinmang, biron tayyor kod bo'lsa ham uni o'zingiz qo'lda yozishni o'rganing, amaliyotingizni yanada oshiring, klaviaturadan to'g'ri foydalanishni biling, ko'proq mashq qiling, ana shunda ko'nikmangiz oshadi. Hostingga sayt qo'yish darajasida bo'lmasangiz ham oddiygina saytlarni yaratishni to'xtatmang, bu sizning kelgusidagi ishlaringiz poydevori hisoblanadi, uning dizayniga kata e'tibor bering, chunki, hozirgi zamonda tashqi ko'rinish va mukammallik katta ahamiyatga ega.

Yozilgan dasturda uchragan xatoliklaringizni birinchi ko'rishdayoq hech kimdan so'rab bilib olib, to'g'rilamang, ularni izlab toping, xatolaringizni o'zingiz tuzatishga harakat qiling, agar eplay olmasangiz, o'zingizdan yuqoriroq darajadagi dasturchidan yordam so'rang.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://mohirdev.uz/>
2. <https://community.uzbekcoders.uz/>
3. <https://www.sololearn.com/profile/>
4. Intensiv "Dasturlash asoslari"
5. <https://community.uzbekcoders.uz/post/dasturchi-bo-lish-uchun-nima-ish-qilish-kerak-5f9eda50a4d8c23336258ddf>
6. <https://www.xabar.uz/uz/texnologiya/bir-million-dasturchi>
7. <https://prospero.uz/uz/kak-nauchitsya-sozdavat-saytiy>



8. <https://www.youtube.com/watch?v=W7-INTBsHR4&list=PLY4N-4FJdZQAMWrgRITA2KucZ7z4K040>

9. The Self-Taught Programmer: The Definitive Guide to Programming Professionally by Cory Althoff

10. Make Your Own Neural Network by Tariq Rashid

11. Managing Humans: Biting and Humorous Tales of a Software Engineering Manager by Michael Lopp

12. The Pragmatic Programmer: From Journeyman to Master by Andrew Hunt and David Thomas

13. Learning JavaScript Design Patterns by Addy Osmani

14. The Art of Invisibility: The World's Most Famous Hacker Teaches You How to Be Safe in the Age of Big Brother and Big Data by Kevin Mitnick and Robert Vamosi

15. Clean Code: A Handbook of Agile Software Craftsmanship by Robert C. Martin

16. Hacking: The Art of Exploitation, 2nd Edition by Jon Erickson

17. Code: The Hidden Language of Computer Hardware and Software by Charles Petzold

18. JavaScript for Kids: A Playful Introduction to Programming by Nick Morgan

